

**BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

G'oziyeva Gulandom

dars ishlanmasi

Buxoro- 2015 yil

Dars mavzusi: Amaliy mashg'ulot: qo'l choklaridan namunalar tayyorlash. Dazmol bilan ishlash. Dazmollash usullari.

1. **Ta'limiy:** o'quvchilarga qo'l choklari tikish ishlarini, gazlamadan ushlagich tayyorlashni va dazmollash ishlarini o'rgatish.
2. **Tarbiyaviy :** o'quvchilarni qo'l choklarini va ushlagisch tikishda tejamkorlik, ehtiyotkorlikka va orastalikka (nafosat tarbiyasi) o'rgatish.
3. **Rivojlantiravchi :** o'quvchilarning tikuv buyumlarini tayyorlash ishlarini bajarishga oid ko'nikmalarini mustahkamlash va kengaytirish.

Dars metodi: Zamonaviy "Bumerang " usuli.

Darsning oltin qoidalari:

- Intizom.
- Asosli va mantiqli fikr bildirish.
- Fikrni takrorlamaslik.
- O'zaro hurmat.
- O'zgalar fikrini tinglay olish. Faollik.
- Vaqttejami.
- To'g'ri javob uchun rag'bat.

Dars shiori: Chevar bo'lish ichun tejamkor va orasta bo'laylik.

Dars rejasi:

1. O'tgan mavzuni so'rash("Bu qanday asbob?",tezkor testlar).
2. Yangi mavzu bayoni ("Bumerang usuli").
3. Amaliy ish : qo'l choklaridan namunalar tikish.
4. Amaliy ish : ushlagich tayyorlash. (Dazmollash ishlarini bajarish).
5. Darsni mustahkamlash (Test).

Darsning borishi:

I Tasktliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashish, navbatchini aniqlab davomatni olish.
Guruhlar bilan tanishish.

II O'tgan mavzuni so'rash.

1. Slayd orqali qo'l ishlarini bajarishda ishlatiladigan asbob va uskunalar rasmi ko'rsatiladi. Guruh a'zolari navbat bilan ko'rsatilgan asbob haqida ma'lumot beradilar. Boshqa guruhlar ma'lumotni to'ldirishi mumkin. "Rag'bat" yoki "Jarima" kartochkalari beriladi.
2. Tezkor testlar slayd orqali ko'rsatiladi, har bir guruh ishtirokchisi navbat bilan test javobini aytadi. Guruhlar "Rag'bat" yoki "Jarima" bilan baholanadi. O'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

Tezkor testlar.

1. Choklash nima?
a) 2 gazlamani bir biriga ulash. b) gul tikish.

Qol choklaridan namunalar tayyorlash. (2guruh)

Chok hosil qilish yoki chok tikish - qol ishlarini bajarishda eng ko'p bajariladigan ish turi hisoblanadi. Chok tikish, ya'ni choklash orqali ikkita gazlama bir-biriga ulanadi. Qol choklari kiyim detallarini vaqtincha birlashtirish uchun va butunlay qoldirish maqsadida tikiladi. Tikuvchilik ishlarida qol chokining asosan quyidagi turlari ko'p qollaniladi: vaqtincha birlashtirish uchun to'g'ri ko'klash choki, salqi chok- 1 tomondan 2-tomonga ko'chirishda ishlatiladi, bezak choklari, suv choki - gul tikishda; do'ppilarning chetini tikishda archa, zanjir chok, to'rlash choki, krest choklari ishlatiladi.

Qol choklari tikish qoidalari:

1. Gazlamadagi bo'r chizig'ining qalinligi 0,1 sm dan oshmasligi kerak.
2. Vaqtincha birlashtirish uchun tikilgan qaviq qator ochiq rangli ipda tikiladi.(ko'rinib turishi uchun)
3. Qaviqning uzunligi - 1 sm ichida 3-4 ta chok boladi.
4. Qaviqqator tikilgandan keyin mustahkamlanadi.
5. Salqi qaviqqatorni ko'klash chokidan keyin, mashina baxyaqatorni chokidan oldin so'tib tashlanadi.
6. Koklash qaviqqatori baxyaqatordan keyin so'tib tashlanadi.

Dazmol bilan ishlash va dazmollash usullari (3guruh)

Odatda gazlamalarni silliqlash, choklarni tekislash uchun dazmol qilinadi. Kiyimni tikishda dazmoldan to'g'ri foydalanilsa, ish sifatii chiqadi. Choklarni, kiyimlarni, gazlamani teskari tomonidan dazmollash kerak.

Dazmollash ishlarini bajarish qoidalari:

1. Gazlamaning xossasiga qarab dazmolning issiqlik rostlagichi to'g'rilanadi.
2. Dazmol bosishdan awal uning tagining tozaligini tekshirish kerak.
3. Tayyor kiyimni avval teskari tomonidan, mayda qismlaridan boshlab dazmollanadi.

4. Dazmollangan kiyimni to'g'rilab osib yoki taxlab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Ish o'rnini tashkil qilish. Dazmollash moslamasi ishlash uchun qulay qilib qattiq yog'ochdan tayyorlanadi va ustiga paxmoq odevayl qo'yiladi. Uning ustiga oq surpdan g'ilof kiydiriladi. Dazmollar har xil: oddiy qizdiriladigan, issiqligi rostlanadigan, bug'li dazmollar boladi. **Dazmollash usullari:**

1. Dazmollash, gazlamani yoki tayyor kiyimni silliqlash, tekislash.
2. Yorib dazmollash - choklarning orasini ochib, ikki tomonga yotqizib dazmollash.
3. Bostirib dazmollash - choklarni bir tomonga yotqizib dazmollash.
4. Siqib dazmollash - suvlab, bir tomonga siqib dazmollanadi.

Berilgan mavzuga mos tushunchalarni aniqlang

T/r	Mavzular Tushunchalar	Qo'l choklahdan namunalar tayyorlash	Ushlagich tayyorlash	Dazmol bilan ishlash va dazmollash usullari
-----	--------------------------	--	-------------------------	--

1	Choklash orqali ikkita gazlama bir-biriga ulanadi			
2	Choklarni,kiyimlanii, gazlamani teskari tomondan dazmollash kerak.			
3	Haroratga chidamli, asosan paxta tolali gazlamalardan tayyotrlanadi.			
4	Choklarni bir tomonga yotqizib dazmollash			
5	Kiyim detallarini vaqtincha birlashtirish uchun va butunlay qoldirish uchun tikiladi.			
6	Gazlamaning xossasiga qarab,dazmolning issiqlik roslagichi to'g'rilanadi.			
7	Oddiy qizdiriladigan,issiqligi rostlanadigan,bug'li dazmollar bo'ladi.			
8	Salqi qaviqqatormi ko'klash chokidan keyin mashina baxyaqatori chokidan oldin so'tib tashlanadi.			
9	Ko'klash chokining o'rtasini teng 3 bo'x lakka bo'h'b parallel chiziqlar o'tkaziladi.			
10	Vaqtincha birlashtirish uchun tikilgan qaviqqator ochiq rangli ipda tikiladi.			
11	Bir uchiga ipdan ilgak chatiladi.			
12	Sintetik materiallar issiqqa chidamay erib ketishi mumkin.			

Qo'l choklari bajarishda xavfsizlik qoidalari:

1. Nina va to'g'nag'ichlarni maxsus yostiqchaga qadab qo'yish yoki idishda saqlash, ishni albatta angishvona bilan tikish.
2. Qaychini ma'lum joyda saqlash, yoki ish qutichasiga solib qo'yish.
3. Singan ninani yerga tushirmaslik, alohida idishda saqlash.

IV Amaliy mashg'ulot.

- qo'l choklaridan namunalar tayyorlash.
- ushlagich tikish
- dazmollash usullarini X.T.Q larga rioya qilgan holda bajarish.

V Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

1. Qo'l choklarni tikishda qanday qoidalarga rioya qilinadi?
2. Qo'l choklarni tikishda qanday xavfsizlik qoidalarga rioya qilinadi?
3. Siz qaysi chok turlari bilan tanishdigiz?
4. Ushlagichlar nima maqsadda ishlatiladi?

5. Ushlagichlar qanday gazlamalardan tikiladi?
6. Ushlagichlar tikishda qanday choklardan foyddalaniladi?
7. Dazmollashning ahamiyati nima?
8. Dazmollashda qanday qoidalarga rioya qilinadi?
9. Dazmollash qanday usullarda amalgam oshiriladi?

O'quvchilarni baholash: guruhlarining "Rag'bat" va "Jarima" kartochkalarini sanab baholash, o'quvchilarni baholash.

Uyga vazifa: Ushlagichning yangi ko'rinishlarini chizib kelish, kattalarning nazorati ostida gazlama yoki kiyimlarni dazmollash ishlarini o'rganishni davom ettirish.